

KORXONADA MUVAFFAQIYATLI ISHBOP STRATEGIYANI YARATISH USULLARI

Umurova Mohira Asqarboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7066678>

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasini kuzatish va o'rganish asosida strategiyalar ishlab chiqilgan.Tashkilotni rivojlantirishda muvaffaqiyatli strategiyalarni to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish uchun bir qancha tamoyillar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, tashkilot, missiya, menejment, ishbop strategiya, strategiyaga ta'sir etuvchi omillar.

СПОСОБЫ СОЗДАНИЯ УСПЕШНОЙ БИЗНЕС-СТРАТЕГИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ

Аннотация. В данной статье стратегии разработаны на основе наблюдения и изучения опыта развитых стран, разработаны несколько принципов правильного выбора и использования успешных стратегий в развитии организации.

Ключевые слова: стратегия, организация, миссия, управление, бизнес-стратегия, факторы, влияющие на стратегию.

WAYS TO CREATE A SUCCESSFUL BUSINESS STRATEGY IN THE ENTERPRISE

Abstract. In this article, strategies have been developed based on the observation and study of the experience of developed countries. Several principles have been developed for the correct selection and use of successful strategies in organizational development.

Keywords: strategy, organization, mission, management, business strategy, factors influencing strategy.

KIRISH

Strategiya umumiy tarzda firmaning mavqeini mustahkamlash iste'molchilarining talablarini qondirish va qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqarish rejasidir. Aniq strategiyani tanlash rivojlanishning mumkin bo'lgan turli yo'llari va usullari ichi-dan eng maqbulini tanlab olish demakdir.

Strategiyani ishlab chiqish menejerlarning asosiy funksiyalaridan biridir. Strategiya qanchalik yaxshi o'ylangan va amalga oshirilgan bo'lsa kompaniya mavqeい shunchalik kuchayadi.

Kompaniya menejerlarining tashkilot faoliyatining qanday turlari bilan shug'ullanmoqchi va kelajakda qanday bo'lmoqchi degan masalaga qarashlari strategik ko'rish deyiladi. Strategik ko'rish biz kimmiz, nima qilyapmiz, nima qilmoqchimiz degan savollarga javob beradi. Bazan kompaniyalar o'zining vazifasini noto'g'ri belgilab, uni faqat foydada ifodalaydilar. Biroq foya kompaniya bajaradigan ishning natijasidir. Faqat foya olishga qaratilgan kompaniyaning missiyasi korxonalarni bir biridan farqlash imkonini yo'qotadi. Har bir kompaniya o'zining qiyofasi, imidjiga ega bo'lishi kerak.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Xo'jalik faoliyati mazmuniga bog'liq ravishda — ITTIKI (NIKOR) rejasi, ishlab chiqarish; sotish; moddiy-texnik ta'minoti; molivaviy rejalar.

2. Firma tashkiliy tizimiga bog'liq ravishda:

- ishlab chiqarish bo'limining rejasi;
- shu'ba kompaniyalar rejasi.

Rejalshtirish siyosati va darajasi quyidagi muhim shartlar bilan belgilanadi:

boshqaruvning barcha darajasidagi rahbarlikning bilimdonligi bilan; funksional bo‘limlarda ishlayotgan mutaxassislar malakasi bilan; axborot bazasining mayjudligi va kompyuter texnikasi bilan ta’minlanganligi bilan. Rejalshtirish firma imkoniyatlaridan qulay foydalanishga, jumladan, barcha turdagи resurslardan eng yaxshi foydalanish va firma faoliyati samaradorligini pasayishiga olib keladigan xatoli harakatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan.

S. Fulomov. Menejment va biznes asoslari. — T. Mehnat, 1997, И. Н. Герчикова. Менеджмент. — М.: «Банки и биржи», изд. «ЮНИТИ», И. А. Кабушкин. Основы менеджмента. — М.: Высшая школа, каби olimlarning asarlarida strategiya, rejalarining turlari haqida so‘z yuritilgan. R. Valijonov, O. Qobulov. Menejment asoslari. — Т.: Universitet. 1997, asarida strategik rejalshtirish korxona rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etish haqida so‘z yuritilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot ishida tahlil va sintez, kuzatish, taqqoslash hamda statistik usullardan foydalanilgan.

Faoliyat doirasini to’g’ri aniqlash uchun quyidagi omillarni to’g’ri aniqlash lozim

- | |
|--|
| <ul style="list-style-type: none">Aholining ehtiyoji, ya’ni nima ishlab chiqarish kerak. |
| <ul style="list-style-type: none">Xaridorlar guruhi, yoki tovarlarni kim uchun ishlab chiqaramiz |

Texnik va funksional ijro ya’ni xaridorlar ehtiyojini qanday qondiramiz.
--

Strategiya tuzishga yondashuvlar quyidagicha bo’ladi.

1.Bosh strategik yondashuv bunda strategiyani boshliqning o’zi ishlab chiqadi. Bunday holda boshqaruvchi ahvolni baholashga muqobil strategiyalarga kuchli ta’sir qiluvchi asosiy tadbirkor sifatida chiqadi.

2.Vakolatlarni berish yondashuvi - bunda strategiyalarni tuzish xodimlarga yoki komissiyaga topshiriladi. Bunday holda ma’sul boshqaruvchi strategiyani ishlab chiqishni strategic rejalshtirish bo'yicha personalga yoki ishonch bildirgan xodimlardan tuzilgan maxsus komissiyaga topshiradi.

3. Qo’shma (kollaboratsion) yondashuv. Bu avvalgi ikkita yondashuv o’rtasidagi oraliq variant. Bunday usulning eng kuchli tomoni shundaki strategiyani ishlab chiqish kimlarga topshirilgan bo’lsa uni o’shalarning o’zлari bajarishlari lozim bo’ladi.

4. Tashabbusli yondashuv. Bunday yondashuvda boshqaruvchi kelishilgan strategiyani ishlab chiqish uchun strategiya detallarini ishlab chiqishdan ham, g’oyalar generatorlari guruhini boshqarishdan ham ham manfaatdor emas.

MUHOKAMA

Kompaniya strategysiga ta’sir etuvchi omillar.

Kompaniya strategiyasini aniqlashda ko’plab omillar ta’sir qiladi. Bu omillarning o’zaro ta’siri har bir tarmoqda o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib vaqt davomida o’zgarib turadi.

Strategiyani belgilovchi omillar doim bir biridan farq qiladi. Firma hamisha ham o'zi xohlagan strategiyani tanlay olmaydi. Uning harakatlari qonun, davlat siyosati, ijtimoiy tartiblash va jamiyat mavqeい bilan belgilanadi.

Kompaniya strategiyasini belgilovchi omillar.

Tashqi omillar -Ijtimoiy , siyosiy sharoitlar va qonunchilik.

Tarmoqning jozibadorligi raqobat shartlari

Kompaniya uchun imkoniyatlar va xavf- xatarlar.

Ichki omillar -Kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, bozordagi raqobat mavqeい .

Shaxsiy manfaat, biznes falsafasi, ahloqiy tamoyillar.

Aksiyalarning qiymati va kompaniya madaniyati.

Muvaffaqiyatli strategiya yaratish tamoyillari

Tadbirkorlik tajribasi qayta qayta isbotlaydiki kompaniyani barbod qiladigan harakatlarga qarshi strategiyani yaratish quyidagi prinsiplarga asoslanadi. Quyidagi prinsiplar a'lo strategiyani yaratishda qo'l keladi.

- Strategik harakatlarni yarating va tadbiq etish jarayonida kompaniya uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydiganlarini afzal ko'ring. Mustahkam raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun investitsiya qiling.
- Hech qachon raqobatchi korxonalarining javob reaksiyasini past baholamang. Raqobatchini kuchli tomoniga qaraganda zaif tomoniga hujum qilish qulayligini unutmang.
- Xarajatlarning ishonchli ustunligiga ega bo'lmay turib narxni pasaytirishga harakat qilmang. Kuchli raqobat mavqeiga va yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lmay turib moliyaviy qudratli kompaniyalarga hujum qilishda ehtiyyot bo'ling.

AQSh menejmentida rejalahshtirish 1 yildan 5 yilgacha. Yaponiyada rejalar 5 yildan 15 yilgacha bo'lgan muddatga ishlab chiqiladi, chunki kompaniyaning maqsadi, qoida tariqasida, maksimal foya olish emas, balki korporatsiyaning bozor ulushini oshirish va uning rivojlanish istiqbollarini ta'minlashdir. Amerika kompaniyasi uchun joriy rentabellikka e'tibor qaratgan holda tanlangan taktik maqsadlarga muvofiq, qisqa muddatda daromadni oshirish uchun barcha turdag'i resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash nuqtai nazaridan boshqaruva tizimlarining maksimal moslashuvchanligiga e'tibor qaratish odatiy holdir.

Yaponiya kompaniyalarida rejalahshtirish texnik va texnologik innovatsiyalarga qaratilgan. Tarixiy jihatdan Yaponiya Evropa va Amerikaning ilg'or texnologiyalari va texnologiyalarini faol o'zlashtirgan korporatsiyalar ko'tarildi va gullab-yashnadi. Innovatsiyalar yapon biznesining shiori bo'lib, u o'nlab yillar davomida yaponlarning boshqa mamlakatlardan qoloqlikni yengib o'tishga intilishidan kelib chiqqan va pirovardida Yaponiya iqtisodiyotini yetakchi o'ringa ko'tarishga hissa qo'shgan. Shu sababli, hozir ham kompaniyalar foydasining katta qismi tadqiqotga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishga, xodimlarni to'liq va har tomonlama o'qitishga yo'naltiriladi, ularning aksariyati muhandislik ixtisosligiga ega. Bu, shuningdek, Amerika firmalaridan muhim farqi bo'lib, unda xodimlarning aksariyati iqtisodiy yoki yuridik ma'lumotga ega va ishlab chiqarish jarayonlarini juda yaxshi tushunadi.

XULOSA

Strategiya korxonaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun rahbariyat foydalanadigan tadbir choralar majmuasidan iboratdir. Imkoniyat va xavf xatarlar nafaqat kompaniya vaziyatini balki harakat yo'naliшини ham ko'rsatadi .

Strategiya kompaniyaning tashi vaziyatiga va ichki holatiga qanchalik mos bo'lsa shunchalik kam sonli o'zgarishlarni strategiyaga kiritish lozim bo'ladi.

Strategiyani yaratish asosiy boshqaruv muammosini ko'taradi ya'ni korxonaning hozirgi va kelajak imkoniyatlarini hisobga olib kerakli natijalarga qanday erishish mumkinligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Abdullayev Y. To'laganova Sh. "Menejment va marketing asoslari" T.: TMI 2006 yil.
2. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F. Ways to expand network marketing and e-commerce in the wholesale of medicines //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – T. 16. – №. 06. – C. 113-116.
3. G'ulomov S.S. " Menejment asoslari" O'quv qo'llanma.– T.: ToshDIU, 2006 yil. Sharifxo'jaev M, Abdullaev Y. " Menejment". Darslik – T.
4. Qosimov F.M. "Menejment": Oliy o'quv yurtlari uchun
5. R. Valijonov, O. Qobulov. Menejment. Namangan. Ibrat. 1996.
6. Azimovna M. S., Abdurozikovich M. Z. Features of the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 06. – C. 201-206.
7. R. Valijonov, O. Qobulov. Menejment asoslari. — T.: Universitet. 1997.